



MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM SIFATINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH

Muallif: *Mirzaolimova Ra'noxon*

Qo'qon Universiteti magistratura talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish masalalaritahlil qilinadi. Unda maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya jarayonini zamonaviy talablara sosida tashkil etish, innovatsion pedagogik yondashuvlar va ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanis masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, o'quv tarbiyaviy muhitni takomillashtirish hamda bolalarning intellektual, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari yoritib beriladi. Maqolada maktabgacha ta'lim tizimida sifatni oshirishning ustuvor yo'nalishlari va amaliy ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalitso'zlar: *ta'limsifati, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, tarbiyachimalakasi, rivojlantiruvchi muhit, ta'lim-tarbiya jarayoni.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье анализируются вопросы повышения качества образования в системе дошкольного образования. Особое внимание уделяется вопросам организации образовательного процесса в дошкольных учреждениях с учетом современных требований, инновационных педагогических подходов и эффективного использования образовательных технологий. Также освещаются пути повышения профессиональной компетентности педагогического персонала, улучшения образовательной среды и обеспечения интеллектуального, социального и творческого развития детей. В статье обосновываются приоритетные направления и практическое значение повышения качества в системе дошкольного образования.*



Ключевые слова: качество образования, инновационный подход, педагогические технологии, компетентностный подход, квалификация педагогов, развивающая среда, образовательный процесс.

ABSTRACT: This article analyzes the issues of bringing the quality of education to a new level in the preschool education system. It pays special attention to the issues of organizing the educational process in preschool educational institutions based on modern requirements, innovative pedagogical approaches and the effective use of educational technologies. It also highlights ways to increase the professional competence of pedagogical personnel, improve the educational environment, and ensure the intellectual, social and creative development of children. The article substantiates the priority areas and practical significance of improving quality in the preschool education system.

Keywords: quality of education, innovative approach, pedagogical technologies, competency-based approach, educator qualifications, developmental environment, educational process.

KIRISH

Bugungi

kunda

ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim sifatini oshirishda vlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning intellektual, jismoniy, axloqiy va ijtimoiy rivoji aynan maktabgacha ta'lim davrida amalga oshadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish dolzarb va zifalardan sanaladi.

Maktabga chata'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish, avvalo, ta'lim mazmunini yangilash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy jamiyat talablariga mos, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va muloqotga layoqatli shaxsni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasalarining roli beqiyosdir. Shu sababli ta'lim jarayonid ainnovatsion



yondashuvlar, rivojlantiruvchi muhit va bolaning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan pedagogik faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishning asosiy yo'nalishlari, zamonaviy yondashuvlar va ularning amaliy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirishda pedagog kadrlar salohiyati, ta'lim muhitini takomillashtirish hamda bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish jarayonida ushbu sohada to'plangan tajribani chuqur tahlil qilish va umumlashtirish, shuningdek, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollariiga mos ravishda kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda, ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik, kadrlar hamda axborot bazasi bosqichma-bosqich mustahkamlanib, o'quv-tarbiya jarayoni zamonaviy o'quv-uslubiy majmualar va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanmoqda.[2]

Bugungi kunda jahon talablari va andozalariga javob beradigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yilib, ularni yanada rivojlantirish ishlari izchil amalga oshirilmoqda. Ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini to'liq axborotlashtirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglar malakasini oshirishga nisbatan yangi yondashuvlar hakllanib, bunda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, zamonaviy boshqaruv, innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etishbo'yicha layoqatini kuchaytirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida kutilgan natijaga erishish asosiy yo'nalishlar sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu bilanbirga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv faoliyati sifati faqatgina o'quv rejalar va dasturlar mazmuni bilan emas, balki tarbiyalanuvchilarning egallagan bilim, malaka va ko'nikmalari, shuningdek,



ularning mustaqil ta'lim olish qobiliyat iorqali namoyon bo'ladiga nta'lim natijalari bilan belgilanmoqda.[3]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya sifati, uni baholash hamda sifat menejmenti masalalari yuzasidan xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar natijasida muhim ilmiy xulosalar shakllangan. Ushbu tadqiqotlar asosida maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limiy va tarbiyaviy jarayon sifatini ta'minlashga qaratilgan ichki baholash mexanizmlari ishlab hiqilgan, shuningdek, ta'lim sifati menejmentini sertifikatlash va sifatni kafolatlashga oid samarali usullar tavsiflangan. Bu yondashuvlar maktabgacha ta'lim tizimida sifatni boshqarishning ilmiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya sifatini baholash, uni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, kvalimetriya usullaridan foydalanish hamda sifatning yalpi menejmentini joriy etish uzluksiz ta'limtizimini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda kvalimetrik tahlil alohida ahamiyat kasb etib, u ta'lim sifatini aniqlash va miqdoriy baholash imkonini beradi. Kvalimetriya diagnostic metodlarni belgilash, sifat ko'rsatkichlarini o'lchashning nazariy va amaliy asoslarini yaratishga yo'naltirilgan ilmiy faoliyat sohasi bo'lib, sifa thaqidagi fan — kvalitologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.[4]

Hozirgi kunda dunyo miqyosida ta'lim sifati menejmentini takomillashtirishga qaratilgan izlanishlar bir qator ustuvor yo'nalishlarda olib borilmoqda. Jumladan, ta'lim sifatini kafolatlash uchun yagona mezon va standartlarni ishlab chiqish, ta'lim xizmatlari eksportini kengaytirish, ta'lim dasturlarini akkreditatsiyalash bo'yicha milliy tizimlarni uyg'unlashtirish hamda sifatni boshqarish texnologiyalarini yanada rivojlantirish masalalari kengtdiqiqetilmqda.

Biroq, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish, ushbu muassasalarda ta'limiy va tarbiyaviy boshqaruv menejmentining o'ziga xos jihatlarini aniqlash hamda yagona tizimni hakllantirish masalalari hali to'liq hal etilmagan. Shu bois ta'limda sifatni boshqarish, sifatni



kafolatlashda akkreditatsiyaning ahamiyati, sifatning tashqi monitoringi, ta'lim sifatini baholash tizimlari, ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ta'lim sifatini nazorat qilishning pedagogiks hart-sharoitlarini aniqlashga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchayib bormoqda.[5]

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olibchiqish masalasi mamlakat ta'lim siyosatida dolzarb ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish nafaqat ta'lim mazmunini yangilash, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim muhitini rivojlantirish va pedagog xodimlarning kasbiyk ompetensiyasini oshirish orqali amalga oshiriladi. Innovatsion yondashuvlar, kvalimetriyaasosida sifatni baholash, ta'lim jarayonini axborotlashtirish va sifat menejmenti tizimlarini qo'llash maktabgacha ta'limda sifatni yangi bosqichga olibchiqish imkonini beradi.

Shuningdek, ta'lim sifatini oshirishda davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyatining muvofiqligi, pedagoglar malakasini oshirish, akkreditatsiya va tashqi monitoring kabi mexanizmlarning samarali ishlashi zarur. Bularning barchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tizimli va mustahkam shakllantirish, ularning intellektual, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish maktabgacha ta'limtizimini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahimova. O. J. (2023). Maktabgachata'limdata'lim-tarbiyasifativasamaradorliginioshirishgayo'naltirilganj arayonlarnitashkiletish. 1(4), 214–219.
2. Xamrayeva. N. (2025). Maktabgachata'limtashkilotlariboshqaruviningsamaradorliginioshirishuchunzamon aviyyondashuvlar. 1(1), 386–392.



3. Valiyeva. M. M. (2024).
Maktabgachavaboshlang'ichta'limsifativasamaradorliginioshirishningtendensiyalar
i. 2(5), 370–374.
4. Isomova. F. T. (2023).
Maktabgachata'limtashkilotipedagog-tarbiyachisiningta'lim-tarbiyajarayoninirejala
shtirishfaoliyati.
5. MunisaSafarova (2025).
Maktabgachata'limtashkilotlaridaoilaviyhamkorliknimustahkamlash.